

This is not registered version of TotalDocConverter

Odam deb atalgani uchun Oloviddin aka ham bu tuyg'udan benasib qolmagan. Oloviddin aka o'zi yaxshi odam - yaqinda qamoqdan chiqdi. Aslida qamalmasdiyam. Qo'shnisi Miltiqboyda ham bo'lgan maqtanchoqlik sabab bo'ldi. Shahardan tuman madaniyat uyiga qatnab ishlovchi Chamanxon otliq jonon bor edi. Oloviddin aka u bilan "uchrashib" turardi. Buni Miltiqboy tushmagur tushida oltin topib olgan jinniday, Chamanoyning eriga maqtanib aytibdi-da! Eri o'z navbatida Oloviddin akaga maqtanibdi: "U qilib, bu qilib yuboraman, palonchiboy meni akaxonim bo'ladi!" Oloviddin akani "u, bu" qilisholmadi, ammo Miltiqboyga qiyin bo'ldi: o'ng oyog'ini siltab bosadigan, chap ko'zini o'ynatib turadigan bo'lib qoldi.

Oloviddin akaga esa jin ham urmadi. To'g'ri, ikki yilmi, uch yilmi qamalib chiqdi, ammo kechagi kuni mashina oldi. O! Ana mashina! Darvozasining oldiga chiqarib qo'yib rosa uch soat yuvdi - maqtanchoqlik deganlari qamoqxonada ham qolmas ekan-da. Artdi, yarim soat. Mashina yaraqlab ketdi. Ammo akaning ko'ngli to'lmadi: "Vo! Muborak bo'lsin! Xo'roz yigitlar mashinaniyam xo'rozini minarkan-da!" deb yurakdan aytiladigan xitoblar qani?

Oxorli kostyum-shimini kiyib, galstuklarini taqib rulga o'tirdilar. Qalamning tili bo'lganda, "Mashinaning Oloviddin akaga, u kishining mashinaga yarashganini qarang!" der, buni qahramonimiz ham eshitgan bo'lardi, afsuski... Xo'p, qalamda zabon yo'q ekan, ammo odamlarda-chi, odamlarda, tillari uzilib tushganmi? Tuman markazini kesib u yoqqa o'tishdi, bu yoqqa o'tishdi - biror xitob yo'q. Aqalli e'tibor berib qarashib, qoyil deganday qosh ham qoqib qo'yishmaydi!

Madaniyat uyining oldida signal berib to'xtashdi. Viqor bilan mashinadan tushib, eshik tomon yurishdi. Vey, bo'lar ekan-ku! Sobiq kasbdoshlaridan to'rt-besh tasi o'rnilaridan turishib, bo'ylab-bo'ylab qarasha boshlashdi. Mana o'sha hayratlaru xitoblar: "Oh! Zo'r narsa ekan! Voh, o'lib qolaman! Yangisi chiqibdimi?!"

Oloviddin aka cheksiz bir huzur bilan qo'lidagi kalitni o'ynaganicha ularga yaqinlashdi: "Ha, endi, meni bilasizlar-ku!..."

Ammo kasbdoshlari unga parvo ham qilishmadi. Bo'ylashib hamon hayratlanishda davom etishardi: "Zo'r narsa, joningni bersang arzirkan!"

Oloviddin aka mag'rur bosh qimirlatganicha ortiga o'girildi va hamkasblari bo'ylashayotgan tomonga boqib qotib qoldi: mashinasining orqasidagi yo'lakchadan, "Zamon-zamon, bizning zamon" degan yurish bilan bir parizod lov-lov yonib o'tib borardi.

E, maqtanchoqlik deganlari yomon dard ekan.

Oloviddin aka dardiga ertasiga davo topdi. Zulukday mashinasida tuman markazidan o'tib borarkan, "Oh! Qoyil! Zo'r ekan!" degan xitoblar bilan kuzatib qolishdi. Yonida Chamanxon o'tirgani uchun, bu xitoblar unga qarata aytilayotganini sezsa-da, Oloviddin aka huzurlanardi. Mayli-da! Bu huzurni aka kechgacha davom ettirmoqchi edi, Chamanoy zumda rejasini chippakka chiqardi:

- Oloviddin aka, hov anovi qariyani ko'ryapsizmi? - dedi u yo'l chetida arava yetaklab ketayotgan cholg'a ishora qilib.

Qaradi, tanidi, otasi, xo'p nima bo'пти? Chamanoy jim ketaversa bo'lardi-ku, yo'q:

- Kechagi kuni mana shu boboyning ham besh ming so'mini oldim! - deya maqtandi.

Suzib ketayotgan mashina qo'qqis to'xtadi. Oloviddin aka shitob bilan Chamanoyni zo'rlab mashinadan tushirdi-da, gap-so'zsiz jo'nab qoldi. Mana, maqtanchoqlikning oqibati!

Bu voqeani Oloviddin akaning o'zlari maqtanish ohangida so'zlab berdilar.

- Nega endi mashinadan tushirib yubordingiz? - so'radim atay.

- Ie, tushirmasang bo'ladingi?! - dedi u ko'zlarini katta ochib. - Enam bo'lib qolishiga jinday qolgan ekan-ku!